O’zbekiston Fanlar akademiyasi Direktorlar kengashi yig’ilishi o’tkazildi

Bugun, 12-oktyabr kuni O’zR FA Direktorlar kengashining navbatdagi yig’ilishi o’tkazildi. Yig’ilishni Direktorlar Kengashi raisi Q.Davronov ochib berdi va kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi.

Kun tartibidagi birinchi masala bo’yicha FA prezidenti B.Yuldashev so’zga chiqib, tizimda oxirgi besh yilda amalga oshirilayotgan ishlarga, ilmiy tadqiqotlar natijalariga to’xtaldi.

So’ngra, FA Matematika instituti direktori Sh.Ayupov FA Ustavining yangi tahriri haqida gapirib, unga kiritilgan o’zgartirishlar bo’yicha ma’lumot berdi.

Yig’ilish kun tartibidagi navbatdagi masala – FA ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash dasturi asosida ilmiy va laboratoriya uskunalari bilan jihozlash bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlar to’g’risida FA bosh ilmiy kotibi G’.Baxadirov ma’lumot berdi.

Ma’lumki, Davlatimiz Rahbari rahnamoligida so’nggi yillarda ilm-fanga alohida e’tibor va g’amxo’rlik ko’rsatilmoqda. Xususan, 2020-yil 1-yanvardan FA tizimidagi barcha ilmiy tadqiqot muassasalari byudjetdan moliyalashtirish tizimiga o’tdi. FA Moliya-iqtisod bo’limi boshlig’i M.Jo’raeva ilmiy-tadqiqot muassasalarining to’g’ridan-to’g’ri byudjetdan moliyalashtirishga o’tgandan keyingi faoliyati haqida to’xtaldi.

Shuningdek, yig’ilish kun tartibida FA tizimidagi ijro intizomi holati va belgilangan topshiriqlar ijrosi to’g’risida ham ma’lumot berildi.

Yig’ilish so’nggida FA tomonidan yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan ishlar bo’yicha aniq vazifalar belgilab olindi.